

## FAQAT SOG`LOM ONADANGINA SOG`LOM BOLA TUG`ILADI



### XOMILADORLAR KAMQONLIGINING XOMILA, GO`DAK VA BOLALARGA TA`SIR OQIBATLARI SAVOL VA JAVOBLARDA

**Savol:** Temir taqchilligi (temir taqchillik kamqonligi - TTK) xomilador ayol organizmiga qanday ta`sir ko`rsatadi?

**Javob:** Temir elementi tana o`shishi va nerv tizimi shakllanishida, kollagen sintezida, porfirinlar metabolizmida, terminal oksidlanish va oksidlanuvchi fosforlanishda, hamda immun tizim va to`qima nafasida ishtirok etadi. Temir elementi yetishmasligida bu jarayonlarning barchasi zaiflashadi. Masalan, to`qima nafas jarayoni zaiflashuvi oqibatida quyidagi holatlar kelib chiqadi:

1. To`qima gipoksiyasi (to`qimalarda kislorod yetishmovchiligi);
2. Rivojlanib boruvchi gemik gipoksiya (xomiladorlarda kislorodga bo`lgan talab 15-33% ortadi);
3. Og`ir temir taqchillik kamqonligida to`qima va gemik gipoksiyalardan tashqari yurakdagi distrofik o`zgarishlar va uning qisqaruvchanligining zaiflashuvi xisobiga serkulyator gipoksiya kelib chiqadi. Bu esa rivojlanib boruvchi gipokinetik turdagi qon aylanishiga olib keladi.

Xomiladorlik davridagi temir taqchillik kamqonligi ham ona, ham xomila uchun katta xavf tug`diradi. Kamqonlikning kuchayib borishi onada pryeklampsiya, pielonefrit, tug`ishdan so`ng tana xaroratining keskin ko`tarilishi va tug`ish vaqtida kuchli qon ketish xavflarini keltirib chiqaradi. Bulardan tashqari, xomilaning tushib qolishi, muddatdan avval tug`ish extimoliyati va boshqa ko`ngilsiz holatlar kuchayib ketadi.

**Savol:** Onaning kamqonlik darajasi xomilaga qanday ta`sir ko`rsatadi?

**Javoblar:** 1. Yengil darajadagi kamqonlik (gemogloblin ko`rsatkichi 91dan 110 g/l gacha) xomilada klinik belgilari quyida keltirilgan salbiy ta`sirlar orqali namoyon bo`lishi mumkin:

- xomila rivojining bir muncha ortda qolishi;
- muddatdan avval «suv ketishi»;
- yo`ldosh orqali xomilaga keladigan ozuqaning yetishmovchiligi;
- tug`ish jarayonining uzayib ketishi oqibatida xomilada gipoksiya kelib chiqishi;
- chaqaloq immun tizimini zaif bo`lishligi.

2. Gemoglobin miqdorining 90g/l dan kamayib ketishi (o`rta og`irlikdagi kamqonlik) oqibatida yo`ldosh tomirlardagi qon oqimi buziladi, xomila yetarli miqdorda ozuqa va kislorod ololmaydi. Kamqonlik yo`ldosh distrofiyasini keltirib chiqarishi natijasida uning vaqtdan avval «qarishi», tug`ish jarayonining muddatdan avval bo`lishi va qon ketish holatlari kuzatiladi.

Bundan tashqari, ayol organizmida rivojlanayotgan intoksikasiya jarayoni xomilaga bevosita zararli ta`sir ko`rsatadi. Bu patologiya kamdan kam holatlarda xomila o`limiga olib kelsada, xomilaga ta`sir etuvchi qator salbiy oqibatlarga sabab bo`ladi:

- xomila organ va to`qimalarining shakllanishidagi buzilishlar;
- nerv tizimi rivojidadagi salbiy o`zgarishlar;
- xomilaning o`shishi va rivojlanishidagi ortda qolishlar;
- xomilaning ona qornida sust xarakatlanishi;
- yo`ldosh yetishmovchiligi. Bu holatda xomilada o`tkir kislorod yetishmovchiligi kelib chiqadi va u xomilaning bosh miya rivojiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

3. Xomiladorlik davridagi uchinchi (og`ir) darajadagi kamqonlik eng xatarli bo`lib hisoblanadi.

Og`ir kamqonlikda gemogloblin ko`rsatkichi 70 g/l dan kamayib ketadi. Gemogloblin ko`rsatkichini bunday kamayib ketishi nafaqat ona va uning xomilasi sog`lig`iga, balki ularning hayoti uchun ham katta xavf tug`diradi. Shu sababli bunday xomiladorni zudlik bilan kasalxonaga yotqizish zarur va u mutaxassislarining muntazam kuzatuv ostida bo`lishi shart.

Agar og`ir darajadagi kamqonlik bevosita tug`ish vaqtida aniqlansa, profuz qon yo`qotish hamda ona va xomila o`limini oldini olish maqsadlarida ko`p holatlarda kesarev uslubini qo`llash belgilanadi.

Og`ir darajadagi kamqonlik xomiladorlikning barcha davrlarida quyidagi asoratlarga olib keladi:

- xomiladorlikni suniy to`xtatish xavfi;
- muddatdan avval to`lg`oq tutishi va suv ketishi;
- yo`ldosh ko`chishi;
- muddatdan avval tug`ish;
- xomilada o`tkir kislorod yetishmovchiligi;
- tug`ish jarayonini to`xtab qolishi;
- xomila rivojida og`ir nuqsonlar - xomilaning organ va tizimlari, shu jumladan markaziy nerv va yurak-qon tomir tizimlarining to`liq shakllanmasligi;
- bachadondan ko`p miqdorda qon ketishi;
- xomilaning tushib qolishi.

**Savol:** Onada kuzatilgan og`ir darajadagi kamqonlik chaqaloq salomatligiga qay darajada zararli ta`sir ko`rsatadi?

**Javob:** Chaqaloqlarda nafas jarayoni buzilishi, talvasaga tushib qolish, ko`krakni olish refleksining zaiflashuvi, me`da-ichak trakti faoliyati buzilishi va boshqalar kuzatiladi. Klinik ko`rikda shifokor bola jussasining kichikligi, vazni kamligini va teri qoplamalarini yupqaligini aniqlaydi. Bunday chaqaloqlarning ko`pchiligiga reanematolog yordami kerak bo`ladi.

**Savol:** Asfiksiya bilan tug`ilgan chaqaloqlar dispenser kuzatuvda bo`ladilarmi?

**Javob:** Ha, asfiksiya bilan tug`ilgan barcha chaqaloqlar albatta pediatr (neonatolog) va nevrolog dispenser kuzatuvda bo`ladilar.

**Savol:** Kamqonligi bo`lgan chaqaloq va bolalarda qanday belgilar va kamqonlik oqibatlari kuzatiladi?

**Javob:** Bunday chaqaloq va bolalarda kamqonlikning quyidagi asoratlari kuzatilishi mumkin:

- turli xarakterli o`zlashtirishning ortda qolishi va koordinasiyaning buzilishi;
- so`zlash jarayonining ortda qolishi;
- psixologik va boshqa o`zgarishlar (e`tiborning susayishi, kamquvvatlilik, ishonchsizlik va boshqalar)
- jismoniy faollikning pasayishi;
- immun tizimining zaifligi oqibatida shamollash va turli yuqumli kasalliklarga bo`lgan moyillik va boshqalar.

**Savol:** Ertangi bolalik davrida kuzatilgan kamqonlik qanday asoratlarga olib keladi?

**Javob:** Bolaning bosh miyasi xomiladorlikning 9-chi oyidan boshlanib rivojlanishini va bu holat keyingi davrlarda ham davom etishi inobatga olinsa, ayni shu vaqt mobaynida biogen elementlar, shu jumladan temir taqchilligini oldini olish juda ahamiyatlidir. Shuni ham ta`kidlash kerakki, bola rivojining ertangi davrida kuzatilgan temir taqchilligi oqibatida kelib chiqqan nuqsonlar qaytmas bo`lib, bola rivojining keying davrlarida namoyon bo`lishi mumkin. Buning asosida katta odamning bosh miyasida saqlanadigan temir elementining asosiy miqdori (taxminan 80%) uning yoshlik davrida o`zlashtirgan temir elementi bo`lib xisoblanadi.

Chaqaloqlik davrida kamqonlik bilan og`irgan bolalarning 30% 10 yoshga yetganda sinfdan sinfga o`ta olmasliklari aniqlangan [Lozoff B., Jimenez E. et al. Poorer Behavioral and Developmental Outcome More than 10 Years after Treatment for Iron Deficiency in Infancy // Pediatrics, 2000. Vol.105, P.1-11]. Buning asosiy sababi bolaning ertangi yoshlik davrida kuzatilgan temir taqchilligi xisobiga kelib chiqqan eslab qolish qobiliyatining zaifligidir.

## DIQQAT!

Davo, o`rta og`ir darajadagi kamqonlikdan boshlab, albatta farmakologik dori vositalari yordamida amalga oshirilishi kerak. Bemorning holatini ozuqa maxsulotlari bilan yaxshilab bo`lmaydi!

Faqatgina to`g`ri tanlangan davo uslubi va unga mos preparatlarga kamqonlikning xomiladorga, xomilaga va chaqaloqqa keltirishi mumkin bo`lgan zararli asoratlarini oldini olishi yoki keskin kamaytirishi mumkin.

Kamqonlikni, shu jumladan xomilador va emizuvchi onalar kamqonligini davolovchi faol preparatlar sirasiga ko'p tarkibli innovasion preparat – FERROKOMED kiradi. Bu preparat qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bunday xususiyatlar boshqa antianemik preparatlarda kuzatilmaydi.

Preparat xar qanday genezli temir tanqisligi anemiyalarida, aralash genezli anemiyalarda (vitamin B12, folat kislotasi va temir tanqisligi) va surunkali postgemorragik anemiyalarda (bovosil, me`da- ichak yaralari, kuchli xayz ko`rish, bachadon fibromasi bilan bog`liq kamqonliklar va boshqalar) qo`llanadi.

FERROKOMED bezarar preparatlar turkumiga mansub. Shu sababli u xomiladorlikning barcha muddatlarida, shu jumladan birinchi uch oyligida ham qo`llanilishi mumkin.

FERROKOMEDning qo`llash bo`yicha yo`riqnomasida ko`rsatilgan dozalash tartibiga rioya qilinganida, preparat inson organizmining na faqat temirga, balki kobalt va mis kabi hayotiy muhim mikroelementlariga bo`lgan sutkalik ehtiyojini to`liq qondiradi.

Quyidagi jadvalda KOBAVIT preparatining kamqon xomiladorlarda qo`llanganda chaqaloq va go`daklarning xastalanishiga ta`sir effekti keltirilgan [Умарова Л.Н. Особенности феррокинетики и системы иммунитета у детей от матерей с анемией и обоснование привентивной терапии // Автореф. ... кандидата медицинских наук. Ташкент, 2004]

Aynan shunday xossalarni o`zida KOBAVIT saqlagan ko`p tarkiblik antianemik vosita - "FERROKOMED" preparati namoyon qiladi.

### **KAMQON XOMILADORLARDA KOBAVIT PREPARATINI QO`LLASH SAMARADORLIGI: PREPARATNING YANGI TUG`ILGAN CHAQALOQ VA GO`DAKLAR XASTALIKLARIGA TA`SIRI**

Kobavit, shu jumladan FERROKOMED tarkibidagi preparat ham, yangi tug`ilgan chaqaloqlar va go`daklarda kuzatiladigan qator kasallik va holatlarni nafaqat kamaytiradi, balki ularni kelib chiqishining oldini oladi.

Yangi tug`ilgan chaqaloqlar va go`daklar xastalıkları va holatlari	Xomiladorlar kamqonligini davolashda tanlangan davolash taktikasining yangi tug`ilgan chaqaloqlar va go`daklar xastalıkları va holatlariga ta`siri		
	xomiladorlar kamqonliklarida faqat temir preparatlarini qo`llash natijalari	xomiladorlar kamqonligi davosiga Kobavit preparatini kiritish natijalari	
<b>Yangi tug`ilgan chaqaloqlar</b>			
Asfiksiya	41,6 ± 6,3% - I darajali 29,7 ± 7,6% - II darajali	22,2 ± 9,8% - I darajali 0% - II darajali	
Bosh miyada qon aylanishining buzilish alomatları	36,6 ± 6,2%	5,6 ± 0,4%	
Xomila rivojining orqada qolishi	11,6 ± 4,1%	5,4 ± 0,5%	
Yiringli yallig`lanish xastalıkları (konyuktivit, omfalit, piodermiya)	43,3 ± 6,3%	0,0%	
Og`iz bo`shlig`ining zamburug`li zararlanishi	16,7 ± 4,8%	0,0%	
<b>Bir oylik chaqaloqlar ko`rsatkichlari</b>			
Yiringli yallig`lanish xastalıklarining rivojlanishi	46,4 ± 6,6%	0,0%	
Og`iz bo`shlig`ining zamburug`li zararlanishi	39,4 ± 6,5%	0,0%	
<b>Uch oylik go`daklar ko`rsatkichlari</b>			
O`tkir respirator kasalliklar	23,1 ± 5,8%	8,2%	
Yiringli yallig`lanish xastalıkları	9,6 ± 4,0%	0,0%	
Xomiladorlik davridagi TTK darajasi	O`rta og`ir	TTK latent (yashirin) shakli	Qon ko`rsatkichlari me`yorda
	Og`ir	I darajali TTK	TTK latent (yashirin) shakli

Onalari xomiladorlik davrida Kobavit qabul qilgan chaqaloqlarda, onalari faqat temir preparatlari qabul qilgan chaqaloqlarga nisbatan, o`tkir respirator kasalliklar 2 marotaba kam, I – darajali disbakterioz 6 marotaba kam, II – darajali disbakterioz esa 4,5 marotaba kam uchraydi.